



O'ZBEKISTON METROPOLITENIDAGI MONUMENTAL  
SAN'AT ASARLARI



**Hilola Orifjon qizi Abdusalomova**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Mahobatli  
rangtasvir yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston metropolitenidagi monumental san'at asarlarining shakllanish tarixi, ularning me'moriy va badiiy xususiyatlari, milliy madaniyatni aks ettirishdagi o'rni hamda zamonaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Toshkent metropoliteni bekatlarida qo'llanilgan monumental rangtasvir, mozaika, marmar, granit, vitraj, haykaltaroshlik va boshqa bezak san'ati turlari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, metro bekatlarining nafaqat transport tizimi, balki xalqning tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini namoyon etuvchi san'at maskani sifatidagi o'rni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mahobatli rangtasvir, monumental san'at, Toshkent metropoliteni, metro bekatlari, mozaika, freska, marmar, vitraj, me'morchilik, dekorativ bezak, milliy madaniyat, monumental kompozitsiya.

**Kirish:** Monumental san'at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san'at turi me'moriy inshootlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, binolarning ichki va tashqi qiyofasini bezash, estetik muhit yaratish hamda xalqning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifodalash vazifasini bajaradi. Monumental san'atning asosiy xususiyati shundaki, u alohida kartina sifatida emas, balki me'moriy inshootning ajralmas qismi sifatida yaratiladi. Shu sababli monumental rangtasvir, mozaika, vitraj, haykaltaroshlik va relyef san'ati me'morchilik bilan uyg'un holda rivojlanib kelgan<sup>15</sup>.

O'zbekiston hududida monumental san'atning rivojlanish tarixi juda qadimiy hisoblanadi. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent va Bolaliktepa yodgorliklarida topilgan devoriy rasmlar, naqshlar hamda bezak kompozitsiyalari qadimgi ajdodlarimiz monumental san'atni mukammal egallaganligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida esa ushbu san'at turi yanada rivojlanib, zamonaviy me'moriy inshootlar bilan uyg'unlashdi. Ayniqsa, Toshkent metropoliteni monumental san'atning eng yorqin namunalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi<sup>16</sup>.

1970-1990 yillari Toshkentdagi metro qurilishi jarayonida metropolitenning ko'pgina bekatlarida devoriy surat, haykaltaroshlik, gorelef, tarixiy mavzulardagi mahobatli-bezak san'ati turlari bo'yicha asarlar yaratildi. "Kosmonavtlar" metro bekati uslubi butunlay boshqacha. Bekat ko'p ustunli zal va yer osti yo'li bilan birlashtirilgan ikkita vestibuldan

<sup>15</sup> Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015

<sup>16</sup> Abdullayev Nemat Ubaydullayevich. San'at tarixi: Ikki jildlik. T.K. Qo'ziyev umumiy taxriri ostida. San'at nashr. 2001-192 b.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

iborat. Koinot mavzusida arxitekturaviy-badiiy bezagi berilgan. Zal intereri buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek, afsonaviy Ikar, birinchi kosmonavt Yu.Gagarin va boshqalar tasviri tushirilgan badiiy sopol bilan bezatilgan. Shift quyma shisha yulduzlar bilan bezatilgan. Vestibyullar intereri metall bilan qoplangan, ko‘zgular granit va marmar bilan bezatilgan, materiallar kosmonavtika mavzusiga mos keladi, bekat bezakchilari kosmik kema muhitini yarata olganlar, u o‘zgachaligi va betakrorligi bilan ajralib turadi<sup>17</sup>.

Toshkent metropoliteni 1977-yil 6-noyabrda foydalanishga topshirilgan bo‘lib, Markaziy Osiyoda qurilgan birinchi metro hisoblanadi. Metro qurilishida nafaqat zamonaviy muhandislik texnologiyalaridan foydalanilgan, balki har bir bekatni alohida badiiy g‘oya asosida bezashga ham katta e‘tibor qaratilgan. Shu sababli Toshkent metropoliteni dunyodagi eng chiroyli metrolardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Metro bekatlarida o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, buyuk allomalari, ilm-fan taraqqiyoti, kosmosni o‘zlashtirish, mustaqillik va mehnat kabi mavzular monumental san‘at vositalari orqali ifodalangan<sup>18</sup>.

“XX asr O‘zbekiston arxitekturasiga xazinasiga anchagina ajoyib va qiziqarli yodgorliklarni olib kirdi. Dunyoga eng chiroyli inshoot sifatida dong‘i ketgan, yurtimizning haqqoniy faxri hisoblanib qolgan Toshkent metropolitenini o‘tgan asrning muhim ijod mahsulidan biri deyish mumkin. Metro ishga tushgandan buyon biz unga o‘rganib qoldik, ammo u odatiy transport inshooti bo‘lib qolganligiga qaramay, o‘zining avvalgi sexrli san‘at asari maqomini yo‘qotgan emas. Toshkent metropoliteni bekatlarini loyihalashtirishda mashhur arxitektorlar, mahobatchi rassomlar, haykaltaroshlar ishtirok etdilar, ular har bir bekatning betakror arxitektura-badiiy obrazini yaratishga harakat qildilar<sup>19</sup>”.

Toshkent metropolitenining har bir bekati alohida me‘moriy va badiiy konsepsiya asosida yaratilgan. Bekatlarning ichki bezaklari, rang tanlovi, yoritish tizimi va monumental san‘at elementlari ularning nomi hamda tarixiy mazmuniga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu sababli metro bekatlari nafaqat transport infratuzilmasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi badiiy makon vazifasini ham bajaradi. Bekatlarda ishlatilgan monumental san‘at asarlari yo‘lovchilarga estetik zavq bag‘ishlash bilan birga, ularni milliy tarix va madaniyat bilan tanishtiradi.

Metropoliten bekatini bezashda milliy arxitektura bezagi xususiyatlarini hisobga olib, o‘ziga xos badiiy to‘xtamlar izlashga alohida e‘tibor berildi, shuning uchun bu stansiya o‘z dizayni bilan e‘tiborni tortadi va estetik zavq bag‘ishlaydi. Har bir bekat o‘zigagina xos bo‘lgan obrazli-ifodaviy xususiyati bilan ajralib turadi. Birorta bekat bezagi bir-birini takrorlamaydi. Arxitektura, mahobatli san‘at, dizayn va estetikalarning haqiqiy sintezi

<sup>17</sup> Хикматуллаева К. Художественное оформление Ташкентского метрополитена. // Звезда Востока. №1, 2014.

<sup>18</sup> Abdullev Nemat Ubaydullayevich. San‘at tarnxi: Ikki jildlik. T.K. Qo‘ziyev umumiy taxriri ostida. San‘at nashr. 2001- 192 b.

<sup>19</sup> Хикматуллаева К. Художественное оформление Ташкентского метрополитена. // Звезда Востока. №1, 2014.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Alisher Navoiy”, “Kosmonavtlar”, “Pushkin”, “Mustaqillik maydoni” kabi bekatlar bezagida badiiylarning yuksak darajasiga erishishga imkon berdi. Bu bekatlar ajoyib go‘zalligi, betakror obrazlari, milliy koloriti, arxitektura kompozitsiyalarining go‘zalligi bilan ajralib turadi<sup>20</sup>”.

Komil Yenikevning mualliflik foto loyihasi vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi. U 2016 yili Toshkent metrosini suratga olib chiqdi. Loyihaning o‘zi ham “Toshkent metrosi” deb nomlandi. Badiiy foto ustasi shunday degan edi: “Men shunday loyihani amalga oshirish imkoniyatini qidirdim, lekin buni men ko‘p pul yoki shuhrat keltirishi uchun qilmadim, men Toshkentimni sevaman, men uning betakror go‘zalligi, jozibasi, o‘z uslubini sevaman. Bu bilan men ko‘rgan go‘zalliklarni odamlar ham ko‘rsin deyman, buning uchun uzoqlarga borishga ham tayyorman, bu meniki. Tabiiyki, metro shaharning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. Toshkent metrosi – bu odamlarni “A” nuqtadan “B” nuqtaga olib borib qo‘yyuvchi yer osti yo‘ligina emas, bu yana o‘z go‘zalligi bilan hayratga soluvchi bekatlardir, ularning har birining o‘z qalbi bor... Endi insonlarning har birida qandaydir yaqinlik va qadrdonlik paydo bo‘ldi, sizga yaqin bo‘lgan bekatning surati bor, u yerda kimnidir kutgan bo‘lishingiz mumkin, u yerdan har kuni vagonga o‘tirib o‘qishga bog‘andirsiz yoki shunchaki yoqib qolgan bekat bo‘ladi, endi har birimiz nigoh tashlab “Bu – bizning Metromiz” deyishimiz mumkin<sup>21</sup>”



**Alisher Navoiy bekati** Toshkent metropolitenining eng nafis va badiiy jihatdan boy bekatlaridan biri hisoblanadi. Bekat buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy nomi bilan atalganligi sababli uning ichki bezaklari ham Navoiy ijodi va Sharq uyg‘onish davri madaniyatiga bag‘ishlangan. Bekat devorlarida shoirning mashhur “Xamsa” dostonlari asosida ishlangan monumental pannolar joylashtirilgan. Ushbu pannolarda “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor” kabi asarlardan olingan lavhalar mozaika va rangtasvir usullarida tasvirlangan. Bekatning ustunlari oq marmardan ishlangan bo‘lib, ularning soddaligi devorlardagi rang-barang monumental kompozitsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Gumbazsimon shift va yirik qandillar Sharq me‘morchiligiga xos ulug‘vorlik hissini uyg‘otadi. Bekatdagi ranglar uyg‘unligi, yorug‘lik va monumental bezaklar Alisher Navoiy asarlaridagi ezgulik, muhabbat va insonparvarlik g‘oyalarini badiiy obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu bekat monumental rangtasvirning eng yorqin namunalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Ozod Xabibullin. Mahobatli rangtasvir san‘ati sohasida ijod qilayotgan tasviriy san‘at ustalaridan biri hisoblanadi. “U O‘rta Osiyo an‘analarida fantastik realizm rangtasviri yo‘nalishlarida ijod qiladi. Mozaika, devoriy surat, shamotdan bo‘rtma, badiiy metall, haykaltaroshlik sohalarida asarlar yaratdi. Toshkentdagi mahobatli ishlar muallifi

<sup>20</sup> Хикматуллаева К. Художественное оформление Ташкентского метрополитена. // Звезда Востока. №1, 2014.

<sup>21</sup> Красота Ташкентского метро. Режим доступа: [http://www.fresher.ru/2016/02/15/krasota\\_tashkentskogo-metro/](http://www.fresher.ru/2016/02/15/krasota_tashkentskogo-metro/).





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hisoblanadi. O'zbekistonda u Toshkent metro bekatlarini bezatdi, Toshkentdagi fanlar akademiyasi binosi intererida "Sharqning buyuk olimlari" devoriy suratini ishladi, O'zbekiston matbuot markazi uchun "Jonli Sayyora" asarini yaratdi, Konservatoriya binosi zallari uchun "San'at turlari" devoriy suratini ishlab berdi. U 1949 yili Buxoro viloyati G'ijduvon shahrida tug'ildi. 1973 yili A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti, Chingiz Axmarov ustaxonasida o'qidi<sup>22</sup>.



**O.Xabibullin. "Yozuvchi Oybek". 1984 yil.**

O.Xabibullin Oybek nomidagi metro bekatiga 1984 yili buyuk o'zbek klassigi, yozuvchi va shoir Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek qiyofasi aks ettirilgan gorelef ishlab berdi. U platformaga tushadigan zinaning yon tomoniga o'rnatildi, u Oybek asarlari mavzusidagi kitob sahifalari ko'rinishida bezatildi. Ulardan birida yozuvchining o'zi tasvirlandi. Gorelef yuksak mahorat bilan ishlangan, tasviriy san'at ustasi O.Xabibullin yozuvchi obrazini chuqur anglab aks ettirganligi ko'rinib turadi. Yozuvchi qomati kitob sahifasini aks ettiruvchi kompozitsiya markaziga joylashtirilgan, chap va o'ngda keksalar o'tirgan choyxona, charxpalakli eski shahar va yangi shahar obrazi joylashtirilgan. Oldingi planda 90-yillargacha har yili paxta plani oshirib borilgan g'o'za to'plari, orqa planda esa zamonaviy shaharning baland qavatli binolari tasvirlangan.



### **Kosmonavtlar bekati.**

Arnold Pavlovich Gan (1928-2000) va Viktor Pavlovich Gan (1947) "Kosmonavtlar" metro bekatidagi medalonlar mualliflari hisoblanadi. Arnold Pavlovich Gan mahobatchi-rassom, rangtasvirchi, suratkash. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. 1943-1948 -yillari A.Volkov va V.Ufimsev qo'lida P.P.Benkov nomidagi RRB Yuda (Respublika badiiy rassomlik yurti), so'ngra V.Muxin nomidagi LVXPU (Leningrad oliy badiiy sanoat bilim yurti)da 1948-1954 yillari o'qidi. Ye.Balashova, Deyneka, V.Muxina, V.Favorskiylar uning o'qituvchilari bo'lgan edi. 1955-1962 yillari RRB Yuda dars berdi. Toshkent shahrining birinchi bosh rassomi

<sup>22</sup> Ulug'bek Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) — T.: « Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi », 2021. 184 b.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lgan<sup>23</sup>. O'zbekiston metropolitenidagi eng original va zamonaviy badiiy yechimga ega bekatlardan biridir. Bekat kosmik tadqiqotlar va insoniyatning koinotni o'zlashtirish yo'lidagi yutuqlariga bag'ishlangan. Bekatning asosiy ranglari to'q ko'k va ko'kimtir tuslarda tanlangan bo'lib, ular cheksiz osmon va fazoni ifodalaydi. Marmar devorlar, metall bezaklar va maxsus yoritish tizimi orqali koinot muhiti yaratilgan. Bekat devorlarida mashhur astronomlar va kosmonavtlarning portretlari hamda yulduzlar tasviri mozaika usulida ishlangan. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy va zamonaviy kosmonavtika namoyandalariga bag'ishlangan monumental kompozitsiyalar ilm-fan taraqqiyotining uzluksizligini aks ettiradi. Bekatning me'moriy yechimida geometrik shakllar va yorug'lik effektlari uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu yo'lovchilarda fazoviy kenglik hissini uyg'otadi.

**Paxtakor bekati** O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va mehnatkash xalqiga bag'ishlangan monumental san'at namunasidir. Bekat devorlarida paxta dalalari, mehnatkash insonlar va hosildorlik ramzlari mozaika hamda relyef usullarida aks ettirilgan. Oqartirilgan marmar va oltinsimon bezaklar paxta tolalarining oppoqligini ramziy tarzda ifodalaydi. Bekatning umumiy kompozitsiyasi xalq mehnatini ulug'lash g'oyasiga asoslangan. Bekatdagi bezaklarda o'zbek xalq amaliy san'atiga xos islamiy va g'irih naqshlari ham keng qo'llanilgan. Ustunlar va devorlar o'rtasidagi mutanosiblik, yoritish tizimi hamda monumental kompozitsiyalar birgalikda yaxlit badiiy muhit yaratadi. Shu jihatdan Paxtakor bekati milliy bezak san'ati va monumental rangtasvir uyg'unligining yorqin namunasi hisoblanadi.



**Mustaqillik maydoni bekati** O'zbekiston mustaqilligi g'oyalarini ifodalovchi zamonaviy monumental san'at markazlaridan biridir. Bekat bezaklarida tinchlik, ozodlik, taraqqiyot va milliy birlik ramzlari ustuvor o'rin egallaydi. Oqartirilgan marmar, nafis ustunlar va zamonaviy yoritish tizimi bekatga tantanavor ko'rinish beradi. Devorlardagi dekorativ pannolar va bezak elementlari mustaqil davlatning rivojlanish yo'lini badiiy obrazlar orqali aks ettiradi. Bekatda qo'llanilgan monumental san'at elementlari zamonaviy me'morchilik bilan milliy an'analarni uyg'unlashtiradi. Naqshlar, bezaklar va kompozitsiyalar o'zbek xalqining boy madaniy merosini ifodalash bilan birga, yosh avlodga vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli Mustaqillik maydoni bekati monumental san'atning zamonaviy taraqqiyotini namoyon etuvchi muhim me'moriy ob'ekt hisoblanadi. Umuman olganda, Toshkent metropolitenining ushbu bekatlarida yaratilgan monumental san'at asarlari me'morchilik, rangtasvir, mozaika va dekorativ san'atning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan yuksak badiiy merosdir. Ular nafaqat transport inshootlarini bezab turadi, balki O'zbekistonning tarixi, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>23</sup> Ulug'bek Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) — T.: « Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi », 2021. 184 b.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Toshkent metropoliteni bekatlarida qo'llanilgan monumental san'at texnikalari O'zbekiston tasviriy san'ati va me'morchilik an'alarining yorqin namunasi hisoblanadi. Bekatlarni bezashda monumental rangtasvir, mozaika, vitraj, marmar, granit, ganch o'ymakorligi, bronza va keramika kabi materiallardan keng foydalanilgan. Ushbu materiallarning tanlanishi nafaqat ularning mustahkamligi, balki estetik ko'rinishi va uzoq muddat saqlanish xususiyatlari bilan ham bog'liqdir. Metro bekatlarining har biri o'ziga xos badiiy g'oyaga ega bo'lgani sababli ishlatilgan bezak elementlari ham shu g'oyani ochib berishga xizmat qiladi. Metro bekatlarida eng ko'p uchraydigan monumental texnikalardan biri mozaika hisoblanadi. Rangli smalta, tabiiy tosh va keramika bo'laklaridan yig'ilgan mozaika pannolari tarixiy voqealar, milliy urf-odatlar, buyuk allomalar hamda tabiat manzaralarini tasvirlashda qo'llanilgan. Mozaika texnikasining asosiy afzalligi uning namlik, harorat va vaqt ta'siriga chidamliligidir. Shu sababli metro kabi jamoat joylarida ushbu texnika eng maqbul bezak usullaridan biri hisoblanadi. Metro bekatlarining bezaklarida marmar va granit alohida o'rin egallaydi. Oqartirilgan marmar ustunlar, devor qoplamalari va pol qismi bekatlarga tantanavor hamda nafis ko'rinish beradi. Turli rangdagi granit va marmarning uyg'unligi monumental kompozitsiyalarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Toshkent metropolitenining ko'plab bekatlarida mahalliy tabiiy toshlardan foydalanilganligi milliy me'morchilik an'alarini saqlashga xizmat qilgan.

**Xulosa:** O'zbekiston metropoliteni, xususan Toshkent metropoliteni, nafaqat transport tizimi, balki monumental san'at va me'morchilikning yuksak namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Metro bekatlarida yaratilgan mozaika, monumental rangtasvir, vitraj, marmar bezaklar va haykaltaroshlik elementlari milliy madaniyatni, tarixiy merosni hamda xalqning estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan. Har bir bekatning o'ziga xos badiiy yechimi mavjud bo'lib, unda tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlar, ilm-fan taraqqiyoti va mehnat mavzulari san'at vositalari orqali ifodalangan. Shu sababli Toshkent metropolitenini yer ostidagi san'at muzeyi deb atash mumkin. Bugungi kunda metro bekatlaridagi monumental san'at asarlarini asrash, restavratsiya qilish va ilmiy jihatdan o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kelajakda yangi metro bekatlarini loyihalashda ham milliy me'morchilik va monumental san'at an'alarini davom ettirish O'zbekiston madaniyatini yanada boyitishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
2. Ulug'bek Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari) – T.: « Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi », 2021. 184.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

3. Красота Ташкентского метро. Режим доступа:  
[http://www.fresher.ru/2016/02/15/krasota\\_tashkentskogo-metro/](http://www.fresher.ru/2016/02/15/krasota_tashkentskogo-metro/).

4. Хикматуллаева К. Художественное оформление Ташкентского метрополитена. // Звезда Востока. №1, 2014.

5. Abdullev Nemat Ubaydullayevich. San'at tarnxi: Ikki jildlik. T.K. Qo'ziyev umumiy taxriri ostida. San'at nashr. 2001- 192 b.

